
YANA BIR BEMORGA YORDAM BERILDI



Avval xabar berganimizdek paxta yig'im-terimi mavsumida "FERGANA GLOBAL TEXTILE" MChJ tomonidan o'tkazilayotgan xayru saxovat tadbirlari davom etmoqda.



Xususan bugun, tuman Xalq qabulxonasiga kelib tuman hokimiga o'z otasining og'ir kasaliga davo topish maqsadida ko'mak berishlarini so'rab murojaat qilgan Yo'ldoshobod mahallasida yashovchi X.Tilavoldiyevaning murojaati ham ijobiy xal etildi.

Tuman hokimi I.Novikov ko'magida bemor B.Tojiboyevning davolanish uchun Razakovlar oilasi tomonidan sakkiz million besh yuz ming so'm moddiy yordam puli ajratib berildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2022-09-17 13:37:44